12-ilova

2023 yilning 2-choragi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT *

MCHJ «O`zEraeAlternator» QKda tashkil qilingan aloqa kanallari bo'yicha ishlar amalga oshirilgan. Ya'ni, Ishonch telefoni 2010 yil февраль oyida (73-220-00-16). Rasmiy veb-saytdagi aloqa kanali 2021 yil март (uea.uz) oyida tashkil qilingan.

Bundan tashqari, MCHJ «O`zEraeAlternator» QKda 2023 yilning 2-choragi davomida korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlar mavjud emas.

2023 yilning 2-choragi davomida 33 nafar hodim belgilangan tartibda ishga qabul qilingan.

Shuningdek, "UzautoComponents" MCHJning 26.09.2022 yildagi 07-042-sonli "Komplayens nazoratiga oid hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va tizimlashtirish to'g'risida"gi qabul qilingan buyrug'i asosida "O`zEraeAlternator" MCHJ QKda O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi Korruasiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021 yil 16 iyundagi PF-6247-son "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019 yil 27 maydagi PF-5729-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari talablarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash maqsadida korxonada qabul qilingan siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo'riqnomalar bilan korxonaning barcha xodimlari tanishtirilgan.

"Uzauto" AJning 27.03.2023 yildagi 27/27-25-0393-sonli xatining 1-ilovasi asosida yangi ishga qabul qilingan hodimlar bilan tuziladigan shartnomalar namunaga muvofiq o'zgartirish to'liq kiritilgan va hodimlarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha to'liq tushuntirilgan.

Korxonada manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha tegishli ichki idoraviy hujjatga asosan xodimlar tomonidan 2023 yilning 2-choragi davomida to'ldirilgan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklarasiyalar tahlil qilib chiqildi.

Tahlillar davomida tashkilotda manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmaganligi ma'lum qilinadi.

Korxonada 2023 yil uchun korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tasdiqlandi va ijrosi nazoratga olindi.

Bunda,

Mahalliylashtirish-GEM generatori loyixasi bo'yicha #: TLAV01 sonli 10.10.2022 yilgi Valeo (Fransiya) korxonasi bilan MCHJ "O`zEraeAlternator" QK o'rtasida TLA lisenziya shartnomalar imzolangan. Shartnoma qiymati 1 500 000 Yevro. Loyixa ishga tushirilishi uchun UzAuto Buyer xodimlari tomonidan ISSR ochilishi kerak.

Kadr yo'nalishi-2023 yilning 2-choragida 33 nafar ishchi hodim ishga qabul qilingan.

Korxonada 2-chorak davomida o‘z arizasi asosida ishdan bo‘shatilgan hodimlar mavjud emas. Yangi qabul qilingan ishchi hodimlar korrupsiyaga qarshi qoidalar bilan toliq tanishtirilgan.

Ta’minot yo‘nalishi-Cobalt avtomobili butlovchi qismlari, xozirda omborda 7148 komplekt maxsulot mavjud bolib, 2 avgustgacha ta`minlangan. Yo'lda 18546 komplekt mavjud. Yo'ldagilar bilan birga ta'minot 21 sentyabrga qadar etadi. Gentra avtomobili butlovchi qismlari, xozirda omborda 1892 komplekt maxsulot mavjud bolib, 20 iyulga qadar . Yo'lda 16330 komplekt maxsulot mavjud. Yo'ldagilar bilan birga ta'minot 21 sentyabrgacha ta`minlangan. Damas avtomobili, xozirda omborda 5500 komplek maxsulot mavjud. Ta'minot 17 iyulga qadar. Yo'lda 27790 komplekt maxsulot mavjud. Yo'ldagilar bilan birga ta'minot 09 sentyabrga qadar.

Xarid yo‘nalishi-hisobot davrida tuzilgan xo‘jalik shartnomalari soni jami 160 ta shartnoma tuzilgan bo‘lib, jami summasi 395,7 mln.so‘mni tashkil qiladi.

Korxonada Korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlar bilan hodimlar tanishtirildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha treninglar tashkil etilishi belgilab qo‘yildi.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi mutaxasisi **M.Matnazarov**